



# FAN, TA'LIM VA AMALIYOT INTEGRATSIYASI

ISSN: 2181-1776

**Xudaykulova Shaxlo Mamaniyozovna**

*O'zbekiston -Finlandiya pedagogika instituti Boshlang'ich talim metodikasi  
dotsenti E-mail: sahlohudojkulova@gmail.com  
Tel: 90 2282625*

## ZAMONAVIY PEDAGOGIK YONDASHUVLAR ASOSIDA TA'LIM BERISH METODOLOGIYASI

**Annotasiya.** Mazkur maqolada an'anaviy va zamonaviy pedagogik yondashuvlar asosida olib boriladigan dars mashg'ulotlari o'zaro solishtirilgan. Shuningdek, zamonaviy pedagogik yondashuvlarni uyg'unlashtirish asosida tashkil qilinadigan dars mashg'ulotlarining afzalliklari ochib berilgan. Maqoladagi fikrlar umumiy xarakterga ega bo'lib, barcha fanlardan tashkil qilinadigan dars mashg'ulotlariga tatbiq qilish mumkin.

**Kalit so'zlar:** an'anaviy ta'lim, shaxsga yo'naltirilgan yondashuv, kompetensiyaviy yondashuv, akmeologik yondashuv.

**Аннотация.** В данной статье сравниваются уроки, проводимые на основе традиционных и современных педагогических подходов. Также раскрываются преимущества занятий, организованных на основе гармонизации современных педагогических подходов. Идеи статьи носят общий характер и могут быть применены к урокам, организованным по всем предметам.

**Ключевые слова:** традиционное образование, личностно-ориентированный подход, компетентностный подход, акмеологический подход.

**Abstract.** This article compares lessons conducted on the basis of traditional and modern pedagogical approaches. Also, the advantages of classes organized on the basis of the harmonization of modern pedagogical approaches are revealed. The ideas in the article are of a general nature and can be applied to lessons organized in all subjects.

**Key words:** traditional education, person-oriented approach, competence approach, acmeological approach.

### **KIRISH.**

Zamonaviy dunyoda jamiyatning har tomonlama rivojlanishi ta'lim mazmuni va sifati bilan bog'liq ekanligi o'z isbotini topib bormoqda. Butun dunyoda yuz berayotgan globallashuv jarayonlarining ta'lim sohasiga ham jadal sur'atlarda kirib kelishi, axborot oqimining ko'pligi, innovasion texnologiyalarning shiddatli rivojlanishi, albatta, ta'lim mazmunida ham shunga mos o'zgarishlar bo'lishini taqozo qiladi. Ta'limning bugungi kundagi vazifasi sohaga qo'yilgan davlat siyosatini amalga oshirish, kadrlar tayyorlash bo'yicha davlat talablarni sifatli bajarish, o'quv adabiyotlarining zamonaviy avlodini yaratish, o'qituvchi-murabbiylarning metodikasini uzluksiz takomillashtirish, o'quvchilarga shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyalari asosida dars berish kabi pedagogikaning metodologik ahamiyatga ega muammolari bilan bevosita bog'liq. Ushbu muammolarning hal qilinishi ta'lim mazmuniga qo'yilayotgan davlat talabining sifatli bajarilishini ta'minlaydi, ta'lim berishning asosiy konseptual masalalarining ijobiy yechimiga sabab bo'ladi. Bu esa fan metodologiyasi va metodologik tadqiqi bilan bog'liq jarayonlardir.

### **ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODOLOGIYA**

Umuman, metodologiya tadqiqi ratsional yondashiladigan, murakkab, ko'p qirrali ilmiy-ijodiy faoliyatdir. Fan metodologiyasining tadqiqi uning rivojlanish qonuniyatlari, obyektini ilmiy konsepsiya nuqtayi nazaridan tadqiq qilish bo'yicha murakkab savollarga javob topishga yordam beradi. Fan metodologiyasi borasidagi fikrlar "metodologiya", "tadqiqot metodi" va "metodika" tushunchalarining o'zaro munosabatida dialektik aloqadorlikni yuzaga keltiradi.

Metodologiya tadqiqotchining nazariy va amaliy faoliyatini tashkil etish, tiklash tamoyillari va usullari tizimi hamda bunday tizim haqidagi ta'limotdir. Metodologiyani metodlar haqidagi ta'limot yoki yalpi-umumiy bilish metodi yoki voqea va hodisalarni ilmiy bilish, uning mohiyatini anglash va uni o'zgartirishning algoritmidir, deyish ham mumkin. Umuman, metodologiya metodlarga va voqelikka qanday yondashish yo'lini o'rgatadi. Demak, muayyan fanning nazariy va amaliy qonuniyatlariga yondashuv usullari, uni tadqiq etish metodlari tizimi metodologiya tushunchasi ostida oydinlashadi.

**Tadqiqot metodi** o'rganilayotgan hodisaning mohiyati haqidagi umumiy nazariy g'oyalardan kelib chiqadigan tadqiqot yo'lidir. Tadqiqot metodlari tadqiqotchiga o'rganilayotgan obyektini belgilangan maqsadga muvofiq tadqiq etishning eng oqilona usullari tizimidir. Tadqiqot metodlari uchta yirik turga bo'linadi:

1. Emperik tadqiqot metodlari. 2. Emperik-nazariy tadqiqot metodlari. 3. Nazariy tadqiqot metodlari.

Metodika har qanday maqsadli harakatlarni amalga oshirish tartibi, tayyor algoritmidir. Metodika usul va vazifalarni aniq qo'yishi bilan metoddan farq qiladi.

Fanning metodologik tadqiqida bu tushunchalar o'z darajasiga ega. Metodologiya ushbu tushunchalarning asosini tashkil qiladi. Metod uchun metodika, metodika uchun tadqiqot metodlari va o'z navbatida tadqiqot metodlari uchun metodologiya asos vazifasini bajaradi.

Zamonaviy pedagogik yondashuvlar va pedagogikaning zamonaviy paradigmatlari muammosi mamlakatimizda B.Xodjaev, L.G.Boboxodjaeva, X.A.Shayxova, G.H.Tillaeva, N.Indiaminov, B.Babajanov kabi tadqiqotchilarning; xorijda I.S.Yakimanskaya, S.Morozov, D.Smolyakova, N.Meyer, A.Klapper kabi olimlarning ishlarida yoritilgan.

### **NATIJAR VA MUHOKAMA.**

Pedagogika fani ijtimoiy ong shakllaridan biri sifatida doimo o'sish, o'zgarish va takomillashishda davom etmoqda. Har bir davrning o'z o'rganish muammolari, unga yondashuv usullari, ilmiy tadqiqot metodologiyasi bir-biridan farq qiladi. Ayni paytda har bir davr uchun umumiy qonuniyatlar mavjudki, ular metodologiyaning tayanch tamoyillari va konsepsiyasini tashkil qiladi.

Ta'lim berish pedagogikaning asosiy faoliyat turi hisoblanadi. Ta'lim beruvchi va ta'lim oluvchi o'rtasidagi o'zaro munosabatni tashkil qilish, mashg'ulotlarning samaradorligini oshirish metodlari, pedagogik jarayonga nisbatan yondashuvlar har bir davrning shart-sharoiti va talablaridan kelib chiqib tanlanadi, yangi zamonaviy yondashuvlar kashf etiladi. Bugungi kun pedagogikasida ta'limni shaxsga yo'naltirilgan, kompetensiyaviy, akmeologik, evristik texnologiyalar asosida tashkil etish amaliy faoliyatning samarali shakllaridan biri sifatida qaralmoqda. Mazkur zamonaviy yondashuvlar pedagogikada metodologik ahamiyatga ega mazmun va shakl hodisalari bo'lib, ularda o'quvchi shaxsini har tomonlama takomillashtirish, ularga individual yondashish, nazariy bilimlarning amaliy ahamiyatini oshirish, o'quvchilarda muayyan kompetentlikni shakllantirish metodlari va ularning iqtidorlarini yuzaga chiqarish bilan bog'liq muhim masalalarga o'ziga xos innovatsion yondashish nazarda tutiladi.

Ta'limning uzluksiz ravishda rivojlanib borishi dars mashg'ulotlari jarayonida qo'llanilayotgan yangi pedagogik texnologiyalarni samarali tatbiq etish shaklida kechmoqda. Yangi pedagogik texnologiyalarni joriy etishdan maqsad ta'lim jarayoni samaradorligini oshirishdan iborat. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasi o'quvchi shaxsini ta'lim jarayonining markaziga qo'yish, uning qobiliyatini rivojlantirish uchun zarur bo'lgan barcha qulayliklar, shart-sharoitlar yaratishdan

iborat. Mazkur texnologiyada ta'lim oluvchi ta'limning keng imkoniyatlarga ega subyekti sifatida namoyon bo'ladi. O'qituvchining o'quvchiga munosabati shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasida asosiy omillardan biri sifatida qaraladi. Ushbu texnologiyani loyihalashtirishda ta'lim oluvchi shaxsining ruhiy, jismoniy va yosh xususiyatlari, uning fanga tayyorlik darajasining hisobga olinishi muhim ahamiyat kasb etadi.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim texnologiyasining asosiy tamoyili o'quvchi shaxsiyatidagi individuallikni tan olishdir. Shaxsga yo'naltirilgan ta'lim yondashuvi variantlilik va aql tavsifi tamoyillari asosida ish ko'radi. Bunda variantlilik o'quvchilarning individual xususiyatlari va tajribalariga qarab barcha uchun bir xil bo'lmagan ta'limning turli modellaridan foydalanish (ushbu tamoyilning tatbiqi bo'yicha mas'uliyat o'qituvchida qoladi.) ni anglatadi, aql tavsifi bu o'quvchilarning bilish, birgalikda harakat qilish va borliqni emotsional o'zlashtirish jarayoniga qaratilgan texnologiyadir.

Shaxsga yo'naltirilgan ta'limning an'anaviy ta'limdan farqi quyidagilardan iborat (1-jadval):

| <b>An'anaviy yondashuv</b>  | <b>Shaxsga yo'naltirilgan yondashuv</b>   |
|---|---|
| Ta'limga muayyan qolipga tushirilgan jarayon sifatida qaraladi (o'zining aniq tartib-qoidalariga ega) | Ta'lim o'quvchiga individual munosabat, uni shaxs sifatida takomillashtirish bo'yicha pedagogik qo'llab-quvvatlashga qaratiladi   |
| O'quvchining rivojlanish vektori oldindan o'rnatilgan bo'ladi   | O'qitish uchun zarur bo'lgan rivojlanish vektorini oldindan belgilamaydi, balki rivojlanish vektori uchun barcha zarur shart-sharoitlarni yaratadi  |
| Barcha uchun umumiy, yagona va majburiy bo'lgan aqliy rivojlanish yo'li belgilanadi                   | Har bir o'quvchining mavjud salohiyatidan kelib chiqib individual qobiliyatlarini takomillashtirish, shaxs sifatida rivojlanishiga ko'maklashish  |
| Ta'limning rivojlanish vektori oldindan belgilanadi   | Rivojlanish vektori talabaning rivojlanishiga yordam beruvchi pedagogik ta'sirlarni aniqlashga quriladi   |
| Ta'limga oldindan belgilangan xususiyatlarga ega shaxsni shakllantirish vazifasi qo'yiladi            | Ta'limga o'quvchining shaxsiy rivojlanishini ta'minlash, strategik faoliyat qobiliyatini rivojlantirish, ijodkorlik, tanqidiy fikrlash tizimi, o'z-o'zini aniqlash qobiliyati, o'z-o'zini |

|   |
|---|
| rivojlantirish, ijobiy “Men”ni anglash vazifasi qo‘yiladi |
|---|

**1-jadval. Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘limning an‘anaviy ta‘limdan farqi**

Shaxsga yo‘naltirilgan yondashuv asosidagi pedagogik texnologiyalar quyidagilar:

- Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim (Yakimanskaya I.S.).
- O‘z-o‘zini rivojlantirish ta‘lim texnologiyasi (Selevko G.K.).
- Insonparvar shaxsiyat texnologiyasi.
- O‘yin texnologiyalari.
- Individual ta‘lim texnologiyasi (Amnoashvili. Sh.A.).

O‘qituvchining dars mashg‘ulotidagi shaxsga yo‘naltirish faoliyati yo‘nalishlari:

- dars davomida barcha o‘quvchilarning mehnatiga nisbatan ijobiy emotsional munosabatni yaratish;

- o‘quvchilarga dars boshida nafaqat mavzu, balki dars davomida o‘quv faoliyatini tashkil etish bo‘yicha ma‘lumot berish;

- o‘quvchilarga o‘quv materialning turi va shaklini (og‘zaki, grafik, shartli-majoziy) tanlashga imkon beruvchi texnologiyalardan foydalanish;

- muammoli ijodiy vazifalardan foydalanish;

- o‘quvchilarni topshiriqlarni bajarishning turli yo‘llarini tanlash va mustaqil ishlatishga undash;

- dars mashg‘ulotida javob bergan o‘quvchilarni baholash (rag‘batlantirish) da ularning nafaqat to‘g‘ri javoblari, balki qanday mulohaza yuritgani, qanday usuldan foydalangani, nima uchun xato qilgani va bunga olib kelgan sabablarni tahlil qilish;

- dars oxirida bolalar bilan nafaqat nimalarni o‘rganganini muhokama qilish, balki dars jarayonida nimalar ma‘qul (yoki noma‘qul) bo‘lgani va yana nimani xohlashlarini, qanaqa yo‘llardan foydalanish maqsadga muvofiqligi haqida o‘quvchilarning fikrini o‘rganish;

- dars oxirida o‘quvchiga berilgan bahoni turli parametrlarda: to‘g‘rilik, mustaqillik, originallik, ijodiy yondashganlik bo‘yicha izohlash;

- uy vazifasi topshirig‘ini faqat mavzu va topshiriqlar doirasini belgilab berish bilan emas, balki uni bajarishning oqilona yo‘llarini ham tushuntirish.

Bunday dars mashg‘ulotlarida foydalaniladigan didaktik materialning maqsadi o‘quv dasturini ishlab chiqish, o‘quvchilarga kerakli bilim, ko‘nikma va malakalarni o‘rgatishdan iborat.

Shaxsga yo‘naltirilgan ta‘lim texnologiyasi o‘quv matni, undan foydalanish uchun didaktik va metodik materiallar, o‘quv muloqoti turlari, o‘quvchining shaxsiy rivojlanishini nazorat qilish shakllarini maxsus qurishni o‘z ichiga oladi.

O'quvchilarning olgan bilimlari kundalik hayotning real vaziyatlarida foydalanishlari uchun asqotishi kerak. Buning uchun ta'limda kompetensiyaviy yondashuvni qo'llash maqsadga muvofiq. "Kompetensiya" lotin tilidan olingan bo'lib, "o'z kasbiga yaroqli, loyiq" degan ma'noni anglatadi.

Bugungi kunda pedagogika nazariyasi va amaliyotida "kompetentlik" va "kompetensiya" tushunchalari o'zaro muqobil tushunchalar sifatida ishlatiladi. Aslida bu ikkita tushuncha bir-biridan farq qiladi. Kompetensiya o'quvchi yoki xodimning kasbiy tayyorgarlik darajasiga qo'yilgan talabni, kompetentlik esa o'quvchi yoki xodimning xuddi shu talablarga javob beruvchi sifatni anglatadi. Nemis olimi Hilbert Meyr o'quvchi va o'qituvchining kompetensiyalarini o'zaro farqlaydi va bu atamani, ayniqsa, o'quvchiga yo'naltirish lozimligini ta'kidlaydi:

- kompetentli o'quvchi "quruq bilim" sohibi bo'lib qolmasdan, o'z bilimlaridan yuzaga keladigan vaziyatlarda yetarlicha foydalana oladi, u xotirasida tez tiklanadigan (faol) bilimlar mazmuniga ega.
- kompetentli o'qituvchi esa pedagogik faoliyatida o'ziga ishongan holda, o'zini qiynamasdan (sog'ligini asragan holda) nazokat bilan dars bera oladi. Bundan tashqari, u ta'limdagi qiyinchiliklarni anglagan holda o'z ustida ishlashga tayyor turadi.

Kompetensiya so'zining umumiylik ma'nosi, uning muayyan sistemani tashkil qilishi, bu sistemadagi tushunchalarni alohida ajratib olgan holda mashq qilib bo'lmasligi, bir so'z bilan aytganda, uning qobiliyatlar jamlanmasi ekanligi e'tirof etilgan.

Amerikalik olim J. Raven kompetentlikning 37 turini ta'kidlab o'tadi. Ular jumlasiga: aniq maqsadga erishish uchun ustuvor yo'nalishni idrok qilish qobiliyati, o'z faoliyatini nazoratda tutish, faoliyat jarayoniga hissiyotlarni yo'naltirish, mustaqil ta'limga tayyor turish, qayta aloqadan foydalanish, o'ziga ishonch, shaxsiy nazorat, ishga kirishib keta olish: ilojsizlik hissining begonaligi, kelajakni yaxshi tasavvur etish, mavhumlashtirishga moyillik, maqsadga erishishga bog'liq muammolarga diqqatni qarata bilish, mustaqil tafakkur, originallik, tanqidiy tafakkur, murakkab masalalarni yecha bilish qobiliyati, bahsli masalalarni yechishga tayyorlik, me'yorli tavakkal qilish, taqdirga tan bermaslik, jamiyatning innovatsiyalarini yaxshi qarshi olishiga bo'lgan ishonchning mavjudligi, natijaning ijobiyligi va ikki tomonlama foydali ekanligini maqsad qilib olish, qat'iyatli(sabotli), ishonchli, o'zini maqsadga muvofiq tutish qoidalariga bo'ysunish, qaror qabul qilish qobiliyati, javobgarlik hissi, maqsadni ko'zlab hamkorlikda ishlay bilish qobiliyati, maqsadga erishish yo'lida boshqalarni ham ishga unday olish qobiliyati, o'zgalarni tinglay bilish va ularning fikrlarini ham inobatga olish qobiliyati, hamkorlarining imkoniyatlariga sub'ektiv baho berishga urinish, boshqalarning mustaqil qaror chiqarishlariga yo'l berish, o'zaro nifoqlarni hal

qilish va ixtiloflarni mo‘tadillashtirish, bironing qo‘l ostida faoliyat yuritayotgan paytda samarali ishlash qobiliyati, turli uslubdagi yashash tarziga nisbatan bag‘rikenglik, siyosiy plyuralizmni tushunish, tashkiliy va jamoaviy rejalashtirishga tayyorlik kabilar kiradi.

Umuman, bugungi kun pedagogikasida bilimlar o‘rgatishdan ko‘ra ularni o‘rganishga o‘rgatish ko‘proq ahamiyatli hisoblanadi. An’anaviy ta’limdagi o‘quvchilarga tayyor bilimlarni o‘rgatish ularda masala va hodisalar mohiyatini anglashga nisbatan ijodiy yondashuvni nazarda tutmaydi, faqat mavjud bilimlarni yodlash, ularni amaliyotga joriy etish bilan cheklanadi. Ammo bilim olish jarayoni ikki bosqichdan iboratligini: birinchi bosqich bilimlarni egallash, ikkinchi bosqich undan xulosalar chiqarish va amaliyotda qo‘llash ekanligini hisobga olsak, bu usul tugallanmagan metodika sifatida o‘zini oqlamasligi ma’lum bo‘ladi. Bilim bilim uchun xizmat qilmas ekan, uning oddiy informatsiyadan farqi qolmaydi. Ta’limda zamonaviy yondashuvlar sifatida qaralayotgan shaxsga yo‘naltirilgan, kompetensiyaviy va akmeologik yondashuvlar mazkur tumtoq metodikaga qarshi qo‘yiladi. Ularga o‘quvchilarning shaxs va muayyan kasb egasi sifatidagi kompetensiyasini shakllantirish bilan bog‘liq qator muammolarning ilmiy va amaliy yechimi sifatida qarash, ta’lim jarayoniga tatbiq etish, shubhasiz, ta’limning oldiga qo‘yilgan zamonaviy talablarning qondirilishini ta’minlaydi.

### **Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati :**

- 1 To‘rayev B. “U kim, bu nima?” Metodologiya. qomus.info. onlayn ensiklopediya. // <https://qomus.info/encyclopedia/cat-m/metodologiya-uz/>
- 2 Meyer H., Klapper A. Unterrichtsstandards für ein kompetenzorientiertes Lernen und Lehren.- Berlin, 2009
- 3 Shayxova X.A. Ma’naviyat – kamolot ko‘zgusi. – T,: G‘.G‘ulom nomidagi NMIU, 2009, -B. 115.
- 4 Tillaeva G.H. Akmeologiya asoslari. – T,: Tafakkur bo‘stoni, 2014, -B. 31-bet.
- 5 Tillaeva G.H. Akmeologiya asoslari. – T,: Tafakkur bo‘stoni, 2014, -B. 192.